ISNN 3030-3907

2026/2
VOLUME 4

DEVELOPMENT OF SCIENCE

ILMIY JURNAL



Development of science

Ilmiy jurnal

2026/2 VOLUME 4

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

LOTIN TILI VA TIBBIY TERMINOLOGIYA FANIDA “RETSEPTNING TUZILISHI VA QO‘LLANILISHI” MAVZUSINI OSON, QIZIQARLI VA SAMARALI TUSHUNTIRISH

Maxmudov Zafar Mardanovich
Samarqand Davlat tibbiyot universiteti Tillar kafedrasi assistenti,
Tel: +998944774510,
E-mail: maxmudovzafar4510@gmail.com.

Annotatsiya. Ushbu maqolada lotin tili va tibbiy terminologiya fanida “Retseptning tuzilishi va qo‘llanilishi” mavzusini o‘rganishda talabalarga tushunish oson va samarali bo‘lishi uchun interfaol usullardan foydalanib dars o‘tish haqida so‘z yuritiladi. Ushbu maqola yosh o‘qituvchilarga uslubiy yordam sifatida yozildi.

Kalit so‘zlar: interfaol dars, faol, rol o‘ynash, guruh bo‘lib ishlash, retsept, shifokorning dorixona xodimiga ko‘rsatmasi, shifokorning bemorga dorini qabul qilish to‘g‘risida ko‘rsatmasi, retsept qismlari, retseptning lotincha qismlari, savol-javob, krossvord, video dars.

Annotation. This article talks about taking classes in Latin and medical terminology using interactive methods to make it easy and effective for students to understand when studying the topic “Structure and Application of the Recipe”. This article was written as methodological assistance to young teachers.

Keywords: interactive lesson, active, role-playing, group work, prescription, doctor's instruction to the pharmacy employee, doctor's instruction to the patient about taking the drug, prescription parts, Latin parts of the prescription, question and answer, crossword, video lesson.

Аннотация. В этой статье речь пойдет о проведении урока по латинскому языку и медицинской терминологии с использованием интерактивных методов, чтобы студентам было легко понять и эффективно изучать тему “Структура и применение рецепта”. Данная статья была написана как методическая рекомендация для молодых педагогов.

Ключевые слова: интерактивный урок, активный, ролевая игра, работа в группе, рецепт, инструкция врача аптечному работнику, инструкция врача пациенту о приеме лекарства, части рецепта, латинские части рецепта, вопросы и ответы, кроссворд, видео урок.

KIRISH

Talabalarga “Retseptning tuzilishi va qo‘llanilishi” mavzusini oson, qiziqarli va samarali tushuntirish uchun darsni interfaol va amaliy tarzda tashkil qilish muhim, deb hisoblayman. Quyidagi usullarni qo‘llash orqali talabalar mavzuni yaxshi o‘zlashtiradilar va darsni qiziqarli o‘tkazish mumkin:

ISSN 3030-3907

1. Retseptning tuzilishini boshlang‘ich ko‘rish: Darsni boshlashda retsept nima ekanligini, uning qanday tuzilishini tushuntirib o‘tamiz. Retseptning tuzilishi bilan tanishish talabalar uchun boshlang‘ich qadam bo‘ladi. Misol:

Retsept — bu shifokorning dorixona xodimiga dori tayyorlash va tayyor dorini berish uchun yozgan murajaatidir. Retseptura –bu retsept yozish qonun-qoidalarini o‘rgatuvchi fan. Retsept har doim aniq va tushunarli yozilishi kerak. Keling, retseptning asosiy qismlarini ko‘rib chiqaylik.

2. Retseptning asosiy qismlarini yoritish: Retseptning tuzilishini tushuntirayotganda uning asosiy qismlarini bo‘lib ko‘rsatish orqali talabalarga oson tushuntiramiz. Har bir retsept 9 qismga bo‘linadi:

1. Inscriptio –davolash muassasasining manzili va telefon raqami;
2. Datum –retsept yozilgan sana;
3. Nomen et aetas aegroti –bemorning ism-sharifi va yoshi;
4. Nomen medici –shifokorning ismi va sharifi;
5. Invocatio –recipere –olmoq fe’lining buyruq mayli birlik sonida tuslangan shakli, ya’ni, Recipe! –Ol! degan yozuv bilan farmatsevtga murojaat boshlanadi;
6. Designatio materiarum –dorining nomi va miqdori;
7. Subscriptio –dorixona xodimiga dori tayyorlash va berish to‘g‘risida ko‘rsatma;
8. Signatura –bemorga dorini qabul qilish to‘g‘risida ko‘rsatma.
9. Nomen et singillum medici personali –shifokorning imzosi va shaxsiy muhri

Oson tushuntirish usuli:

Retseptning tuzilishini diagramma yoki grafik tarzida ko‘rsatamiz. Har bir qismni alohida ko‘rsatib, talabalarga qismlar orasidagi bog‘liqlikni tushuntiramiz.

<table>
<tr><td rowspan="4">Inscriptio</td><td>shtamp</td><td colspan="2">O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SO G‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
SAMARQAND SHAHAR
10-son OILAVIY POLIKLINIKASI</td></tr>
<tr><td>shifr</td><td colspan="2">Samarqand sh. Kimyogarlar q. Umid ko‘chasi 13 A-uy</td></tr>
<tr><td colspan="2">bolalar uchun</td><td>kattalar uchun</td></tr>
<tr><td colspan="3">(keraksizi o‘chirulsin)</td></tr>
<tr><td>Datum</td><td colspan="2">Retsept yozilgan sana</td><td>14 aprel 2025yil</td></tr>
<tr><td>Nomen et aetas aegroti</td><td colspan="2">Bemorning ism-sharifi, yoshi</td><td>Mamatov Muso Isayevich, 56 yosh</td></tr>
<tr><td>Nomen medĭci</td><td colspan="2">Shifokorning ism-sharifi</td><td>Xotamov B.M.</td></tr>
</table>

ISSN 3030-3907

Invocatio	Designatio materiārum	Basis:	**Rp.:**	***Acidi hydrochlorĭdi***	***4 ml***
		Adjuvans:		***Pepsini***	***20 ml***
		Corrigens:		***Sirŭpi Cerăsi***	***50 ml***
		Constituens:		***Aquae destillatae***	***150 ml***
Subscriptio				**Misce. Da.**	
Signatūra				**Signa:** ***1 choy qoshiqdan kuniga 3 mahal ovqatdan so‘ng***	
Nomen et singillum medici personale				***Xotamov B.M.*** SHIFOKOR	

3. Retseptni tahlil qilish: Real retseptni misol sifatida olib, talabalarga uni birgalikda tahlil qilishni taklif qilamiz. Bu talabalarni mavzu bo‘yicha faol ishtirok etishga undaydi. Misol:

“Keling, real retseptni ko‘rib chiqaylik. Bunda biz dori nomini, dozani, qo‘llanilishini qanday belgilashni va shifokorning imzosini aniqlashni o‘rganamiz.”

1. Recipe: Tincturae Convallariae 15,0 ml
   Da. Signa: 15 tomchidan kuniga 2-3 marta.
2. Recipe: Tabulettas Monomycini 0,05 numero 20
   Da. Signa: 1 tabletkadan kuniga 3-4 marta ovqatdan 15 daqiqa oldin.

Talabalar bilan birgalikda retseptni tahlil qilishda har bir qismini aniqlab, nima uchun u alohida yozilishi kerakligini tushuntiramiz.

4. Darsni rasm yoki video ko‘rsatmalar bilan tashkil etish: Retseptni va uning tuzilishini tushuntirishda videolar yoki rasmli ko‘rsatmalarni qo‘llash yaxshi natija beradi. Bu usul talabalarga mavzuni vizual tarzda anglashga yordam beradi. Misol:

“Endi, retseptning qanday yozilishi va amaliy qo‘llanilishi haqida qisqa video ko‘rib chiqamiz. Bu video sizga retsept yozishning real jarayonini ko‘rsatadi. Marhamat qiling.” deb, ushbu ssilka orqali you tube ijtimoiy tarmog‘i orqali video darsni ko‘ramiz: https://youtu.be/R85tekf2Vc4?si=KcEJpUHeB6VouW7c

5. Qiziqarli o‘yinlar va qiziqarli mashqlar: Retsept yozish va uning qismlarini tahlil qilishni o‘yinlar va mashqlar orqali o‘rgatamiz. Masalan, talabalarni guruhlarga bo‘lib, har bir guruhga retseptni to‘g‘ri to‘ldirishni topshiramiz. Misol:

“Men sizlarga turli dorilar bilan retseptlar beraman. Har bir guruh o‘z retseptini to‘ldirishi kerak va so‘ngra barcha guruhlar bilan tahlil qilamiz. Kimning retsepti eng aniq va to‘g‘ri bo‘lsa, o‘sha guruh g‘olib bo‘ladi!”

ISSN 3030-3907

1. Valocordinum, 2. Morphinum, 3. Sarcolysinum, 4. Bicillinum, 5. Mammophysinum, 6. Erythromycinum, 7. Aëvitum, 8. Mycoseptinum, 9. Adrenalinum, 10. Somatotropinum dorilariga retsept tuzing va ularni tahlil qiling (O‘qituvchi har bir talabaga turli variantlarda dori nomlari yozilgan so‘rov kartalarini tarqatadi, talaba o‘z variantida berilgan dorilarning retseptini to‘g‘ri yozishga harakat qiladi).

6. Retseptni amaliyotga tatbiq etish: Talabalar o‘rganganlarini amaliyotda qo‘llashlari uchun ularni retsept yozishga undaymiz. Misol tariqasida turli bemorlar uchun retseptlar yozishni talab qilamiz. Misol:

“Siz shifokor sifatida bemoringizga dori buyurmoqchisiz. Qaysi dori, qanday dozada va qanday ko‘rsatmalar bilan berilishini aniqlang. Bu orqali dori-darmonlar bilan ishlashda aniq va to‘g‘ri tushuncha hosil qilamiz.” Masalan:


1. Recipe: Tabulettas “Analginum” 0,5 numero 10
   Da.
   Signa: 1-2 tabletkadan kuniga 2-3 marta.
2. Recipe: Suppositoria “Anaethesolum” numero 20
   Da.
   Signa: 1 shamchadan kechasi to‘g‘ri ichakka.

7. Retseptni krossvord yoki viktorina yordamida o‘rganish:

Retsept bilan bog‘liq savollarni krossvord yoki viktorina shaklida berish talabalar uchun o‘rganishni yanada qiziqarli qiladi. Misol:

“Endi sizlar uchun krossvord tayyorladim. Har bir savolda retsept bilan bog‘liq terminlarni toping va retseptning tuzilishini yodda saqlashga yordam bering.”

ISSN 3030-3907



8. Amaliy mashg‘ulotlar va sinovlar: Retsept yozishni amaliy mashg‘ulotlar va sinovlar orqali tushuntiramiz. Bu talabalar uchun mavzuni real dunyo bilan bog‘lashga yordam beradi. Misol:


“Keling, hozirgi amaliy mashg‘ulotda talabalar o‘rtasida retsept yozishni mashq qilamiz. Har biringiz uchun o‘z bemoringizga dori yozing, uni to‘g‘ri va aniq shakllantiring.” Talabalar o‘z bilimlarini ishga solib, mustaqil ravishda retseptlar tuzadilar. Tuzilgan retseptlarni o‘qituvchi nazorati ostida guruh talabalari bilan muhokama qilinadi, yo‘l qo‘yilgan xato yoki kamchiliklar bo‘lsa, maslahatlar beriladi. Bu talabaning xatosini tushunib yetishga va kelgusida takrorlamaslikga yordam beradi.

Yana boshqa bir holatni tashkil etishimiz va mavzuga doir testlar yuzasidan qisqa muddatli sinov tashkil etishimiz ham mumkin. Bunda universitet saytida joylashtirilgan ta’lim platformasidan foydalanamiz va test ishlash imkoniga ega bo‘lishimiz mumkin: https://mt.sammu.uz/mod/quiz/view.php?id=190891.

9. Ko‘rgazmali materyallardan foydalanish: Retseptning qanday yozilishi, uni tuzish bo‘yicha ko‘rsatmalar yozilgan plakatlar, jadvallar, yoki raqamli resurslardan foydalanib ko‘rsatamiz. Misol:

“Retsept yozish jarayonini batafsil tushuntirish uchun ko‘rgazmali materiallar tayyorladim. Bu materiallar sizga retseptni qanday yozish kerakligini oson tushunishga yordam beradi.”

ISSN 3030-3907





10. Yakuniy tahlil va talabalar savollariga javob berish: Dars oxirida talabalar bilan qisqacha tahlil o‘tkazamiz. Har bir talabadan o‘rganilgan material asosida savollar so‘rashimiz mumkin. Bu orqali talabalarning mavzuni qanday o‘zlashtirganini tekshirish mumkin. Misol:

“Darsni yakunlashdan oldin, har biringiz retsept yozish bo‘yicha biror savol bermoqchi bo‘lsangiz, men javob berishga tayyorman. Bugun nima o‘rgandik va qanday qo‘llanmalarga ega bo‘ldik?” Talabalar fikri so‘raladi va tahlil qilinadi hamda xulosa aytiladi.

XULOSA

Talabalarga "Retseptning tuzilishi va qo‘llanilishi" mavzusini oson, qiziqarli va samarali tushuntirishda interfaol metodlar, real hayotiy misollar, o‘yinlar va ko‘rgazmali materiallardan foydalanish samarali bo‘ladi. Darsni qismlarga bo‘lish

ISSN 3030-3907

va har bir qismini alohida ko‘rsatib, talabalarni faol ishtirok etishga rag‘batlantirish, mavzuni yodda saqlashga yordam beradi. Darsni turli usullar bilan qiziqarli qilish talabalarni yanada faol va ishtiyoqli qilishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. H.T.UMAROV va boshqalar, Lotin tili va tibbiy-farmatsevtik terminologiya asoslari, Toshkent, “HILOL MEDIA” 380 bet, ISBN: 978-9910-731-08-2 https://e-library.sammu.uz/ru/book/3819
2. Sharipov, B., Makhmudov, Z., & Buriyev, D. (2023). Influence of the latin language on the formation of medical terminology. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 2(1), 16-20.
3. Sharipov, B., Makhmudov, Z., & Buriyev, D. (2023). The role of teaching latin in the course of subject training of future foreign language teachers. Science and innovation in the education system, 2(1), 11-14.
4. Maxmudov, Z., Sharipov, B., & Bo‘riyev, D. (2023). Tibbiyot universitetlarida lotin tili va tibbiy terminologiya fanini o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari. Science and innovation in the education system, 2(1), 5-10.
5. Махмудов, З. М., & Шарипов, Б. С. Талабаларнинг фанни яхши ўрганишлари учун психо–эмоционал таъсир этишда халқ мақол ва маталларидан тўғри фойдаланиш (лотин тили ва тиббий терминология фани мисолида). Zbiór artykułów naukowych recenzowanych, 112.
6. Maxmudov Zafar Mardanovich, & Normurodova Sohiba Mallaevna (2023). LOTIN TILINING ZAMONAVIY TILLARGA BEVOSITA VA BILVOSITA TA’SIRI. Research Focus, 2 (6), 132-136. doi: 10.5281/zenodo.8034739
7. Mardanovich, M. Z., Salimovich, S. B., & Arzimurodovich, B. D. (2021). Modern Methods of Teaching Latin and Medical Terminology in Uzbekistan. International Journal of Development and Public Policy, 1(5), 190-192.
8. Mardanovich, M. Z., Salimovich, S. B., & Arzimurodovich, B. D. (2021). Developing Students Attitudes Towards the Environment When Teaching a Foreign Languages. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 1(1), 199-201.
9. Sharipov, B., Makhmudov, Z., & Buriyev, D. (2023). Features of teaching latin to students medical universities studying in english. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 2(1), 21-25.
11. Mardanovich, M. Z., & Mokhigul, O. (2024). Personality in teaching the module of latin and medical terminology in the medical higher education institution. Journal of Universal Science Research, 2(1), 425-435.
12. Maxmudov, Z. M. (2022). Teaching correct pronunciation of latin as an international language of medicine in medical education institutions, Global

ISSN 3030-3907

Technovation 5th International Multidisciplinary Scientific Conference Hosted From Paris, France. March 30th, 30-31.

13. Mardanovich, M. Z. (2023). EFFECTIVE USE OF INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN TEACHING PRACTICAL CLASSES OF THE SUBJECT" LATIN LANGUAGE AND MEDICAL TERMINOLOGY. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 3(3), 369-375.

14. Qurbonova, Z., & Maxmudov, Z. (2023). LOTIN TILIDA KLINIK TERMINLARNING TO'G'RI QO'LLANISH YUZASIDAN FIKRLAR. Евразийский журнал академических исследований, 3(3 Part 3), 23-27.

ISSN 3030-3907